



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№21 (807), 2025-yil 13-noyabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ 11-noyabr – O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni

O'tgan juma kuni Navoiy kon-metallurgiya kombinatining shuhratini oshirish, ulkan jamoa oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni bajarishga munosib hissa qo'shayotgan rahbaru mutaxassislari, ishlab chiqarish ilg'orlari, kasaba uyushmalari faollari, intellektual salohiyatini yorqin namoyish etayotgan ratsionalizator va ixtirochi yoshlar, turli kasb egalari Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyiga to'plandilar.

FIDOKORONA MEHNAT SHARAFLANDI



O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni hamda O'zbekiston kasaba uyushmalarining 120 yilligini nishonlash uchun madaniyat maskan- raiasi – Bosh direktori Q.Sanaqulov tabrik so'zi bilan chiqish qildi.

Tantanaligini yig'ilishda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raiasi – Bosh direktori Q.Sanaqulov tabrik so'zi bilan chiqish qildi.

– Ma'lumki, joriy yilning 1-noyabrda Toshkentda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 120 yilligini nishonlash uchun madaniyat maskan- raiasi – Bosh direktori Q.Sanaqulov tabrik so'zi bilan chiqish qildi.

bilan bo'lgan uchrashuvda berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi. Uning har bir bandini so'zsiz bajarish bilan ishchi-xodimlari uchun yanada yaxshiroq shart-sharoitlarni yaratib beramiz.

Navoiy va Zarafshon shaharlari, Uchquduq, Nurota va Qo'shrabot tumanlarida joylashgan bo'linmalarimiz hududlarida "Kasaba uyushmasi bog'i" tashkil etamiz. "Eng yaxshi bog", "Eng so'lim go'sha" nominatsiyalari bo'yicha tanlovlar ham o'tkazamiz. Yaxshi sovg'alari bilan, albatta, – dedi notiq jumladan.

Yig'ilishda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rinbosari Q.Qirg'izaliyev tantana ishtirokchilari qutlab, Federatsiya amalga oshirayotgan ishlarga qisqacha to'xtalib o'tdi.

Kombinatda "Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi", "Ishlarning eng yaxshi tashkilotchisi, qonun va qoidalar bilimdoni", "Eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili" ko'rik tanlovlarini o'tkazish an'anaga aylangan. Bayram tanasida ana shu tanlovning joriy yil g'oliblari e'lon qilinib, ular qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Shuningdek, yig'ilishda soha fi- doylaridan bir guruhiga "O'zbekiston kasaba uyushmalariga 120 yil" esdalik ko'krak nishoni, kombinatning "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni na "NKMK faxriysi" unvonlari topshirildi. Mukofotlarni "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raiasi – Bosh direktori Q.Sanaqulov va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining o'rinbosari Q.Qirg'izaliyev topshirdi.

Bayram tantanalari "Farhod" madaniyat saroyi badiiy jamoalarining dilrabo kuy-qo'shiqlari va raqslariga ulanib ketdi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

KASABA UYUSHMALARI HAYOTIDA YANGI BOSQICH

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruvi raiasi – Bosh direktori Q.Sanaqulovning O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining IX Qurultoyidagi nutqi

Assalomu alaykum, qurultoy ishtirokchilari!

Avvalo, sizlarni – kasaba uyushmalarining faollari hamda faxriylarini – bugun ko'tarinki ruhda o'tayotgan ajoyib anjuman va mamlakatimiz bo'ylab keng nishonlanayotgan kasaba uyushmalari harakatining 120 yillik shonli yubileyi bilan chin dildan tabriklayman.

Mamlakatimizdagi eng yirik – 82 ming nafar a'zoga ega bo'lgan NKMK xodimlari kasaba uyushmasi a'zosi sifatida sizlarga o'zimning yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Bu ulug' sana nafaqat xalqparvar jamoat tashkiloti – kasaba uyushmalari harakatining tarixiy yo'lini, balki insonning sha'ni va huquqlarini himoya qilishdagi beqiyos fidokorona xizmatlarini ham mujassam etganligini ta'kidlab o'tmoqchi- man.

Aziz tadbir ishtirokchilari!

Mamlakatimiz Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida tarixiy islohotlar davrini boshidan kechirmoqda. Yangi O'zbekistonda inson qadri va manfaati, uning farovon hayotini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi- ga aylandi.

Bu jarayonlarda davlat tashkilotlari qatorida, jamiyatning eng katta ijtimoiy harakati – kasaba uyushmalari faol ishtirok etmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan kasaba uyushmalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan keng ko'lamli islohotlar kasaba uyushmalari faoliyatida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Buning yorqin namunasi sifatida, "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi yangi Qonunning qabul qilinishi, "Mehnat kodeksi"ning tubdan yangilanishi va 11-noyabrning "O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni" si- fatida belgilanishi kabi tarixiy voqealarni misol keltirish mumkin.

Federatsiya tashabbusi bilan tashkil etilgan Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi kasaba uyushmalari soha mutaxassislari tayyorlashning yangi markaziga, zamonaviy talablar asosida qayta qurilgan O'zbekiston kasaba uyushmalari saroyi esa soha faollarining faxrli maskaniga aylandi.

Hurmatli qurultoy ishtirokchilari!

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 17-oktabrida bo'lib o'tgan kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvi haqli ravishda tarixiy voqea bo'ldi.

Uchrashuvda Yurtboshimiz: "Yangi O'zbekistonda har bir insonga munosib mehnat, kasb sohasida o'sish, dam olish va salomatligini tiklash uchun zarur sharoit yaratish – g'o'yat muhim masala. Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat asosi" degan so'zlari bilan mamlakatimizda inson qadri oshirish va har bir fuqaroga munosib mehnat hamda hayot sharoiti yaratishga qaratilgan siyosatning mohiyatini yorqin ifoda etib, jamiyatda adolat, ham-



ijahatlik va mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilishda kasaba uyushmalarining o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatib berdilar. Bu fikrlar mamlakatimizda davom etayotgan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishda barchamiz uchun dasturilamaldir.

So'nggi sakkiz yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga 130 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya kirib keldi, yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bu jarayonlarga 8 millionga yaqin a'zoga ega bo'lgan kasaba uyushmalari tizimi munosib hissa qo'shdi. Federatsiyaning xalqaro maydondagi nufuzi tobora ortib bormoqda. 2021-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi tashkil etildi. 2023-yilda Samarqand shahrida Turkiy davlatlari kasaba uyushmalari tashkilotiga asos solindi.

2024-yilda esa Federatsiya Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasiga to'laqonli a'zo sifatida qabul qilindi. Bu – 169 davlat, 330 tashkilot va 250 milliondan ziyod a'zolarni qamrab olgan nufuzli xalqaro birlashma safida O'zbekistonning munosib o'ringa ega bo'lganini anglatadi. Bu, shubhasiz, mamlakatimiz kasaba uyushmalarining katta yutug'i hamda mehnatkashlar manfaatini himoya qilishdagi faoliyatining xalqaro miqyosdagi e'tirofidir.

Bunday yutuqlar tasodif emas, balki kasaba uyushmalari faollarining fidokorona mehnati, yurtimizda olib borilayotgan oqilona siyosat samarasidir.

Hurmatli Prezidentimiz rahnamoligida olib borilayotgan islohotlar asosida kasaba uyushmalari hayotidagi yangilanish va o'zgarishlar- da Federatsiya raisi Qudratilla Mirsagatovich Rafiqovning beqiyos hissasini alohida ta'kidlab o'tishni istardim.

Hurmatli do'stlar!

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida keyingi yillarda erishayotgan yutuqlarimizda kasaba uyushmalarining o'rni juda katta bo'lmoqda.

Men yuqorida ta'kidlab o'tganimidek, ayni paytda NKMK kasaba uyushmalari Kengashida 144 ta boshlang'ich qo'mita faoliyat yuritib, 82 ming nafardan ziyod xodimning huquq va manfaatlarini himoya qilmoqda.

Ular tomonidan eng avvalo mehnat muhofazasi, xavfsizlik, ish haqi va ijtimoiy kafolatlar doimiy nazoratdadir.

Biz Jamoa shartnomasining har bir bandi to'liq bajarilishini ta'minlash bo'yicha doimiy ravishda hamkorlikda ishlaymiz. Shunga yarasha hali qilinishi kerak bo'lgan ishlarimiz ko'p.

Biz kasaba uyushmamiz bilan hamkorlikda har bir ishchi-xodimimiz, ularning oila a'zolari, farzandlarini sog'lomlashtirish, sport bilan shug'ullanishlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqdami. Ayni vaqtda zamonaviy talablarga javob beradigan 5 ta tibbiyot muassasasi, 6 ta sihatgoh va dam olish maskani, 11 ta bolalar oromgohi, 6 ta madaniyat va 6 ta sport maskaniga egamiz. Ularning barchasi hamkasblarimiz va ularning oila a'zolariga sifatli xizmat ko'rsatib kelyapti.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyili – inson qadri- ni ulug'lash, uning huquq va imkoniyatlarini ke- ngaytirishdan iborat. Bu yo'lda kasaba uyushmalari – xalq va davlat o'rtasidagi ishonchli ko'priki, ijtimoiy barqarorlik va adolatning muhim tayanchi bo'lib qoladi.

Biz bugun faxr bilan ayta olamiz: Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat, kuchli jamiyat esa – farovon Yangi O'zbekiston- dir!

MUHIM MAVZUGA BAG'ISHLANDI

O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi munosabati bilan Navoiy kon-metallurgiya kombinatida OAV vakillari ishtirokida ana shu sanalarga bag'ishlab brifing o'tkazildi. Unda NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisining o'rinbosari O.Temirov kombinat kasaba uyushmalari faoliyati haqida to'xtalib o'tdi.

Notiq ta'kidlaganidek, Yurtboshimizning "Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat asosi" degan so'zlari amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning mohiyatini ifodalamoqda. Davlatimiz siyosati markazi- da inson, uning mehnati va farovon hayoti turibdi.

Bugungi kunda kombinatda 144 ta boshlang'ich kasaba uyushmasi qo'mitasi fi- liyat ko'rsatmoqda. Ishchi-xodimlarning ij- timoiy himoyasi, ish va dam olish vaqtlarini

aniqlash hamda xavfsiz mehnat faoliyatini tashkil qilish kasaba uyushmalari Kengashi- ning asosiy vazifalari hisoblanadi. Kasaba uyushmalari bu vazifalarni mas'uliyat bilan bajarib kelmokda.

Kombinatda Jamoa shartnomasi alohida o'ringa ega. Jamoa shartnomasi ishchi-xo- dimlar, ularning oilasi, faxriylar manfaati va huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy qo'llab- quvvatlashda asosiy hujjat hisoblanadi. Shu boisdan Jamoa shartnomasida ko'zda tutil-

gan barcha majburiyatlarga qat'iy amal qilib kelinmoqda.

Kombinatda ish joylarida xavfsizlik qoi- dalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, xodimlarni muntazam ravishda o'qitish va tibbiy ko'riklardan o'tkazish, zamonaviy texnika hamda shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash masalalariga alohida e'ti- bor qaratilmoqda. Kasaba uyushmalari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni mustah- kamlash orqali ishlab chiqarish jarayonlari- da yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirish, baxtsiz hodisalar va kasb ka- salliklarining oldini olish bo'yicha tizimli cho- ralar ko'rilmokda.

Xodimlar va ularning oilalari uchun sog'- lomlashtirish, madaniy dam olish va bolalar oromgohlariga yo'llanmalar ajratish kasaba uyushmalari faoliyatining muhim yo'nalishi-

laridan hisoblanadi. Kengash tomonidan sog'lomlashtirish, madaniy dam olish, sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Har yili 12 ming nafardan ziyod bola sog'- lomlashtirish oromgohlarida maroqli dam olmoqda, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun homiylik yo'llanmalari ajratilayapti. Shuningdek, madaniyat va sport sohasida ham keng imkoniyatlar yaratilgan. Kombinat tizimidagi madaniyat markazlarida 7 mingga yaqin yoshlar o'z iqtidorini namoyon etmoq- da. Sport inshootlarida 10 ming nafarga ya- qin ishchi va ularning oila a'zolari muntazam sport bilan shug'ullanib kelishmoqda.

Brifingda kelgusida kasaba uyushmalari faoliyati yanada yaxshilanishi alohida ta'kid- landi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

Kasaba uyushmasi

Kasaba uyushmasi, eng mo'tabar uyushma,
Xodimlarning g'amini, o'ylaydigan uyushma.

Ishda ham, turmushda ham, qo'llaydigan uyushma,
Nohaqlik qilinsa gar, oqlaydigan uyushma.

Adolatni ta'minlab, saqlaydigan uyushma,
Ko'ngli buzg'uq xotirini, chog'laydigan uyushma.

Sog'lig'ini yo'qotsa, tiklaydigan uyushma,
Ijtimoiy ahvolini, o'nglaydigan uyushma.

Yosh avlodga oromgoh, taxtlaydigan uyushma,
Nuroniylar holini, so'raydigan uyushma.

Sihatgohga ularni, yo'llaydigan uyushma,
Bayram-u tadbirlarni, bezaydigan uyushma.

Ona xalqning kuchiga, kuch qo'shuvchi uyushma,
Ona yurt ravnag'ini, ta'minlovchi uyushma.

Xalq g'amini aritib, teradigan uyushma,
Abdulhamidga ilhom, beradigan uyushma.

Abdulhamid QURBONOV,
"Zarmitan" koni yetakchi muhandisi.

■ **O‘zbekiston Respublikasi Tibbiyot xodimlari kuniga**

Inson borki, “men hech qachon kasal bo‘lmayman” deya olmaydi. Har qancha sog‘lom yashashga harakat qilmaylik, shifokor ko‘magiga muhtoj bo‘lishimiz tabiiy. Ana shunday paytlarda doimo yordamga shay, tunu kun bemorlar sog‘ligi uchun qayg‘uruvchi jonkuyar soha fidoyilari – tibbiyot xodimlari o‘z bilimlari bilan bizni darddan forig‘ qilishadi. Bu kasb mas‘uliyat, sabr-toqat va insonparvarlikni talab etadi. Yurtimizda aholi salomatligini muhofaza qilish, zamonaviy tibbiy xizmatni yanada rivojlantirish yo‘nalishida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham ishchi-xodimlar, ularning oila a‘zolari va nafaqaxo‘rlarga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi izchil yo‘lga qo‘yilgan. Yurtimizda noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi – tibbiyot xodimlari kuni sifatida nishonlanadi. Ushbu sana munosabati bilan Tibbiy-sanitariya bo‘limi boshlig‘i, tibbiyot fanlari doktori (DSc) Alisher To‘qсанov bilan suhbatda bo‘ldik. U kasb bayrami arafasida hayotini ezgu ishga bag‘ishlagan jamoa amalga oshirayotgan ishlar haqida quyidagilarni gapirib berdi:



INSONLAR SALOMATLIGI YO‘LIDA



– Tibbiy-sanitariya bo‘limi va joylardagi Tibbiy-sanitariya qismlarida 3,1 ming nafardan ziyod shifokor va o‘rta tibbiyot xodimlari mehnat qilishmoqda. Ular har kuni yuzlab bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatmoqdalar.

Tibbiyot sohasi muvaffaqiyatini zamonaviy jihozlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuni inobatga olgan holda, kombinat rahbariyati tashabbusi bilan so‘nggi yillarda tibbiy muassasalarning moddiy-texnika bazasi tubdan yangilanmoqda. Ma‘nan eskirgan uskunalar bo‘lim va bo‘linmalarda bosqichma-bosqich zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar almashtirilmoqda. Birgina Tibbiy-sanitariya bo‘limi Navoiy maydonida 2019-yildan boshlab, 2025-yilning dastlabki to‘qqiz oyigacha 53,7 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ evaziga turli xil davolash, diagnostika uskunalari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va maishiy texnika vositalari xarid qilinib, shifokorlar va bemorlar uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. MRT (Magnit-rezonans tamograf), MSKT (Multispectral kompyuter tamograf), endoskopik tokchalar, o‘pkaga sun‘iy nafas berish apparatlari, yuqori aniqlikdagi ultratovush tizimlari, fibroskan, rentgen kompleksi va kompyuterlar, sovutgich va muzlatgich kabi zamonaviy asbob-uskunalar shular jumlasidandir. Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi, bakteriologik va klinik laboratoriyalar gematologiya, bioximik va immunoferment analizatorlar, koagulometrlar hamda qon turlarini aniqlovchi zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Bu uskunalar joriy etilishi natijasida tashxis qo‘yish tezligi va aniqligi, bemorlarni davolashdagi samaradorlik yanada ortmoqda.

Bo‘lim faoliyati doirasida ambulatoriya sharoitida davriy tibbiy ko‘riklar, murojaat qiluvchilarni tekshirish, zarur maslahatlar berish hamda statsionarda davolash yo‘lga qo‘yilgan. Ishlab chiqarish obyektlarida tibbiyot punktlari tashkil etilgan bo‘lib, ularda smenadan oldingi va keyingi tibbiy ko‘riklar, zarurat tug‘ilganda ishchilar uchun shoshilinch yordam ko‘rsatish ham samarali olib borilmoqda.

Bo‘lim tarkibida kombinatning barcha ishchi-xodimlari, ularning oila a‘zolari va nafaqaxo‘rlariga ixtisoslashgan bo‘limlar, jumladan, sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi, markaziy qabul bo‘limi, ayollar maslahatxonasi,

stomatologiya poliklinikasi, bolalar va kattalar poliklinikalari qulay sharoitlarda xizmat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, tizim tarkibidagi sanitariya-epidemiologiya xizmati, tez tibbiy yordam xizmati, patalogik anatomiya bo‘limi, funksional tashhislash, maxsus davolash bo‘limi, qon quyish, oftalmologiya, ko‘p tarmoqli jarrohlik, terapiya, nevrologiya, pediatriya, rentgen, otorinolaringologiya (LOR), akusher-genekologiya, yuqumli kasalliklar, anesteziya-reanimatsiya, markaziy sterilizatsiya bo‘limlari va klinik tashxislash laboratoriyasi faol ish olib bormoqda. Bo‘lim faoliyatidagi barcha yo‘nalishlar o‘zaro uzviy bog‘langan. Masalan, tashxis qo‘yish jarayonida funksional tashhislash va laboratoriya bo‘limlari o‘zaro hamkorlikda ishlaydi, jarrohlik va reanimatsiya bo‘limlari esa shoshilinch holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Bu tizimli yondashuv bemorlarning salomatligini tiklashda vaqtini tejash, aniq tashxis qo‘yish va samarali davolash imkonini bermoqda. Ayollar maslahatxonasi va bolalar poliklinikasida profilaktika va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Shifokorlar nafaqat davolash, balki kasalliklarni erta aniqlash, oldini olish va aholini tibbiy madaniyatga o‘rgatish orqali jamiyat sog‘lom bo‘lishiga hissa qo‘shmoqda. Malakali mutaxassislar bilan ta‘minlangan stasionar bo‘limlarda xirurgiya, terapiya, yuqumli kasalliklar, bolalar kasalliklari, diagnostika va fizioterapiya yo‘nalishlarida zamonaviy tibbiy xizmatlar ko‘rsatilmoqda.

So‘nggi yillarda gipatitning B va C turlarini davolash bo‘yicha yaxshi natijalarga erishilmoqda. Xususan, gipatit C kasalligi 100 foizga samara bilan davolanmoqda, gipatit B va C bilan kasallangan bemorlarga bepul dori-darmonlar taqdim etilmoqda. Shuningdek, oftalmologiya va xirurgiya yo‘nalishlarida ham yuqori texnologik operatsiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda — ko‘z gavharini sun‘iy gavhargacha almashtirish amaliyotlari yo‘lga qo‘yilgan. Otorinolaringologiya sohasi zamonaviy lazer uskunalar bilan jihozlangan. Bu uskuna orqali burun ichidagi chig‘anoqlarida jarrohlik amaliyotlari bajarilmoqda. Neyroxirurgiya, onkologiya va travmatologiya yo‘nalishlari bo‘yicha yetarli koyalalar fondi mavjud bo‘lib, chanoq-son va tizza

bo‘g‘imlarini almashtirish kabi jarrohlik ishlari kombinat mablag‘lari hisobidan amalga oshirilayapti. Shuningdek, 2019-yildan katta naysimon suyaklarda blokirovkalovchi intramedullary metal jismni o‘rnatish, ya‘ni BIOS (biologik integratsiya) usuli asosida yuqori texnologik amaliyotlar bajarilmoqda. Neyroxirurgiya sohasida bosh miyada va umurtqa pog‘onalarida ma‘lum darajadagi murakkab operatsiyalar muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar asosida yuqori malakali jarrohlik amaliyotlari yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, umurtqa pog‘onalarining patologik jarayonlarida tibbiy ko‘rsatma asosida S-Duga rentgen moslamasi yordamida transpedikulyar metall konstruksiyalar o‘rnatish, umurtqa pog‘onasi tana qismiga biotsement yuborish singari murakkab operatsiyalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bosh suyakdagi turli xil defektlarni bartaraf etish maqsadida titan va biotsementli implantlar joriy etilishi neyroxirurgiya sohasida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Onkologiya yo‘nalishida kimyoviy terapiyalari asoratsiz amalga oshirilmoqda. Reanimatsiya bo‘limida shoshilinch tibbiy yordam uchun zarur barcha sharoitlar yaratilgan.

Inson salomatligi — har qanday jamiyat taraqqiyotining asosidir. Bu haqiqatni Tibbiy-sanitariya bo‘limi faoliyati misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Soha xodimlarining malakasini oshirish va mutaxassislarni qayta tayyorlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2020–2025-yillar davomida soha bo‘yicha 680 nafardan ortiq tibbiyot xodimlari Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti hamda Toshkent farmatsevtika institutida o‘qitildi. Shu bilan birga, 13 nafar oliy toifali shifokorlar zamonaviy kardiologiya, anesteziologiya, nevrologiya va boshqa yangi klinik yo‘nalishlarda qayta tayyorlanib, malakali mutaxassis sifatida faoliyat yuritib kelishmoqda. Bu jarayon nafaqat bilim oshirish, balki zamonaviy ilg‘or tajribani amaliyotga joriy etish imkonini ham yaratmoqda.

Bugun zamonaviy tibbiyot faqatgina davolash bilan cheklanib qolmay, ilmiy asoslangan tahlil va innovatsiyani talab qilmoqda. Shu bois har bir shifokor ilmiy izlanishni o‘z faoliyatining ajralmas qismi deb bilishi lozim. Bu borada Tibbiy-sanitariya bo‘limi jamoasi orasida ham ilmiy izlanish bilan shug‘ullanayotgan

mutaxassislar soni ortib bormoqda. Shifokorlardan K.Rahmatov, D.Jo‘rayeva, A.Barnoyev, N.Sharipova va O‘.Egamberdiyevlar tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini himoya qilib, soha rivojiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Ilm, tajriba va insonparvarlik uyg‘unligida yetishib chiqayotgan yosh shifokorlar esa ustozlarining izidan borib, soha kelajagini munosib davom ettirmoqdalar.

Shu bilan birga, xorijiy hamkasblar bilan hamkorlik aloqalari kengaymoqda. Yaqinda bir guruh tibbiyot xodimlari Xitoy, Rossiyaning nufuzli klinikalarida tajribalarini oshirib kelishdi. Malakali jarrohlar Moskva, Dushanbe shaharlari, Janubiy Koreya va Belorussiyada bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyalarda o‘z ilmiy ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Bugun NKMK tizimidagi tibbiy muassasalar ishchi-xodimlar va ularning oila a‘zolariga zamonaviy tibbiy xizmat ko‘rsatishning eng yaxshi namunasiga aylanib bormoqda. Aholiga yanada sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish maqsadida muassasamizga yuqori texnologik diagnostik va davolash uskunalar olib kelishni rejalashtirganmiz. Yaqin orada bizda zamonaviy innovatsiyalar — angiograf, S-Duga rentgen apparati, yangi turdagi laparoskopik uskunalar hamda LASIK lazer orqali ko‘z kasalliklarini davolash usuli joriy etiladi. Jumladan, angiograf tibbiy uskunasi organizmning muhim a‘zolari — yurak, miya, jigar va boshqa tonir tizimlaridagi kasallik jarayonlarini aniqlash, stentlashda muhim ahamiyatga ega. LASIK lazer texnologiyasi esa ko‘rish nuqsonlarini bartaraf etish imkonini beradi. S-Duga rentgen apparati yordamida jarroh operatsiya vaqtida kontrast modda orqali qon tomirlarni yoki suyak tuzilmalarini real vaqtda kuzatishi, implant va asboblarning joylashishini nazorat qilishi mumkin. Bu esa operatsiya xavfini keskin kamaytirib, davolash sifatini oshiradi.

Kombinatimiz tibbiyot xodimlari bundan buyon ham sohada erishilayotgan eng so‘nggi yutuqlarni o‘zlashtirgan holda bilim va malakalarini oshira boradilar hamda ulkan korxona ishchi-xodimlariga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilaydilar.

Suhbatdosh
Dildora KARIMOVA.

■ **Xabarlar**

TEMIRQOVUQDA ICHIMLIK SUV TA‘MINOTI YAXSHILANDI



Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi kam ta‘minlangan, ehtiyojmand oilalar va nogironligi bor insonlarning turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Hozir joylarda bu borada moliyaviy-tashkiliy choralar ko‘rilib, tizim joriy qilingani ijobiy samarasini bermoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish davom etmoqda. Kombinatlardan biriktirilgan mas‘ullar Nurota, Uchquduq, Tomdi tumanlari va G‘ozg‘on shahrida aholi bandligini ta‘minlash, oilalarning turmush farovonligini oshirish maqsadida bir qator manzilli loyihalarni amalga oshirishdi. Xususan, Nurota tumanining “Temirqovuv” mahalla fuqarolar yig‘ini aholisining ichimlik suvi ta‘minoti yaxshilanib, 550 ta xonadonning obihayotga bo‘lgan ehtiyoji qondirilgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Joriy yilda kombinat homiyligida “Navoiy suv ta‘minoti” AJ mutaxassislari tomonidan qishloq yuqorisidagi darada uchta kaptaj bu-loqlari yangilandi, transheyalar kovlanib, 500 metrdan ortiq polietilen suv quvurlari tortildi. Kaptajda yig‘ilgan suv o‘z oqimi bilan sig‘imi 1 000 kubometr bo‘lgan maxsus rezervuarga kelib to‘planadi, so‘ngra suv chiqarish quvurlari orqali iste‘molchilarga yetkaziladi.

– Suv ta‘minoti uzoq yillardan buyon odamlarni o‘ylantirib kelayotgan edi. Prezidentimizga rahmat, bu muammo hal etildi. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bu muammoni hal qilishda amaliy ko‘mak ko‘rsatdi. Korxona yordamida Temirqovuv das-risidan qo‘shimcha quduqlar qazilgani va qu-vur yotqizilib, suv keltirilganidan odamlarimiz juda xursand, – deydi mehnat faxriysi Esonboy To‘ychiyev.

“MURUNTOV” KONIDA

davriy oqim texnologiya majmuasi barpo etilmoqda

So‘nggi yillarda “Muruntov” konida istiqbolli loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Bu yerda nafaqat ma‘dan qazib olish hajmi ortmoqda, balki zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali butun ish jarayoni tubdan yangilanmoqda.

Konning chuqurlashishi natijasida qazib olinayotgan tog‘ jinslarini doimiy va vaqtinchalik saqlash joylariga yetkazishda ish samaradorligini oshirish, vaqt hamda xarajatlar miqdorini qisqartirish uchun davriy oqim texnologiya majmualaridan keng foydalanilmoqda.

Bugungi kunda “Muruntov” konini o‘zlashtirishning V navbati 1-bosqich investitsiya loyihasi doirasida konning janubiy yon tomonida davriy oqim texnologiya majmuasini barpo etish bo‘yicha qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Ayni vaqtda majmuaning 2 ta maydalash-yuklash punktingin qurilishi, uzunligi 1500 metr bo‘lgan magistral konveyyer va uzunligi 900 metrlik ag‘darma konveyyerni o‘rnatish ishlari bajarilmoqda. Ish jarayoni avtomatlashtirilgan ushbu davriy oqim texnologiyasi majmuasi joriy yilning yakuniga qadar ishga tushirilishi rejalashtirilgan. – Majmuo to‘liq ishga tushirilishi avtoag‘dargichlarning tog‘ jinslarini tashish masofasi qisqarishi, dizel yoqilg‘isi sarfi hamda atrof-muhit va atmosferaga chang-gaz tarqalishining kamayishiga olib keladi, – deydi Markaziy kon boshqarmasining Kapital qurilish bo‘limi boshlig‘i Xurshid Oyidinov.

Majmuo uchun kerakli asbob-uskunalar kombinatning Navoiy mashinasozlik zavodi va Zarafshon ta‘mirash-mexanika zavodida to‘liq mahalliyashtirilgan holda tayyorlanmoqda.

“NKMK” Matbuot xizmati.

Zarafshon shahrida o‘z kasbiga sadoqatli, yuksak e‘tirofga loyiq hamshiralar ko‘p. Shahar Tibbiyot birlashmasiga qarashli yuqumli kasalliklar bo‘limining oliy toifali hamshirasi Dilbar Qilichyeva qariyb o‘ttiz yillik tajribaga ega.



Dilbar opa bolaligidan oq xalat kiyib insonlarni davolashni orzu qilardi. Otasi Baxron aka va rahmatli onasi Zuxra opa shu qizlari qo‘li yengil va har qanday vaziyatda bemorlarga beminnat ko‘mak berishga tayyor hamshira bo‘lishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdilar. O‘rta maktabni a‘lo baholarga tugatib, Buxoro tibbiyot bilim yurtida tahsil olgan D.Baxronova ilk mehnat faoliyatini Shofirkon tumanidagi yuqumli kasalliklar shifoxona-

nasida hamshira sifatida boshlaydi. U dastlabki davrlardan oq shifokor ko‘rsatmalarini aniq va to‘kis bajari-shi, zahnliligi, bemorlar tili bilan ayt-ganda “qo‘li yengilligi” bilan jamoada hurmat qozondi. Murakkab davolash usullari uning bilim va ko‘nikmalarini

mustahkamladi.

Turmushga chiqqach esa o‘z mehnat faoliyatini 3-Tibbiy-sanitariya qismida davom ettirdi. Faoliyati davomida bemorlarga xushmuomallik bilan munosabatda bo‘lib, vrachlar ko‘rsatmasini bekor-u ko‘st bajardi.

– Hamshira deganda odamlar-ni ko‘z o‘ngida orafta, qo‘li yengil, so‘zi shirin, yuzi kulib turadigan va har qanday vaziyatda bemorga be-minnat ko‘mak berishga tayyor, oliy-janob, mas‘uliyatli va sharaffli kasb egalari gavdalanadi. Ishimdan faxr-lanaman. Shifo izlaganlarga sog‘lom hayot baxsh etish, oilalarga quvonch ulashish baxti nasib etganidan juda xursandman, – deydi Dilbar opa. – Men ko‘proq bolalar salomatligiga javobgarman. Har bir bemorning tuzalib ketishida hamshiralar ham shifokorlar qatorida mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi.

Yuqumli kasalliklar shifoxona-sida ishlash oson emas. Shunday holatlar ham bo‘ladiki, yarim tunda harorati oshib ketgan og‘ir bemorlar keladi. Ba‘zan Dilbar opaning nazo-ratidagi bemor bolalar soni 30 nafar-dan oshib ketadi. Har bir bolaning sog‘ayib ketishi uchun vaqt, e‘tibor va mehr zarur.

– Dilbar Baxronova jamoadagi yosh hamshiralarga namuna hisob-lanadi. Har bir bolaning sog‘lom ta-bassumi ortida hamshiralarimizning katta mehnati bor, – deydi bo‘lim mu-diri Ziyodulla Ubaydullayev.

Inson hayoti nozik chegarada tur-gan bir pallada shifokor va hamshi-ralarning har bir harakati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu mas‘uliyatli ja-rayonda Dilbar Baxronovanning mehri va mehnati ko‘plab insonlarga sog‘-lom hayot bag‘ishlamoqda.

Dilbar opa ko‘p yillardan buyon

7-gidrometallurgiya zavodida meh-nat qilib kelayotgan turmush o‘rtog‘i Mardon aka Tursunov bilan hayot tashvishlarini baham ko‘rish baroba-rida ikki nafar o‘g‘ilni ilmiy, jamiyatga kerakli insonlar qilib tarbiyalayapti. To‘ng‘ich o‘g‘il Maqsudjon oliy ma‘lu-motli iqtisodchi poytaxtda ishlayapti, kelinl Maftunaxon Tibbiyot oliygohi-da 6-bosqich talabasi. Kichik o‘g‘il Ravshanjon Koreya davlatining ja-hon tan olgan universitetlaridan biri-da tahsil olmoqda.

– Shifokorlik shunday kasbki, ish-ni tugatib uyga kelganingda ham yo eshik taqillaydi yoki telefon qo‘ng‘iro-g‘i tinmaydi. Uning ortida najot kutib, umid bilan qarab turgan odamlarning nigohlari meni sergaklantiradi, kasal-niing dardini yengillatishga harakat qilaman, – deydi D.Baxronova. Ha, u o‘z kasbining chinakam fidoyisi.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Faxr



MUSOBAQA G'OLIBLARI TAQDIRLANDILAR

Ilgari xabar berganimizdek, Navoiy shahridagi harbiy qismda respublikamizning turli vazirlik va idoralarning 14ta Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmalari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati jamoasi faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritgan edi. Joriy yilning 31-oktyabr kuni "Navoiy mashinasozlik zavodi" ishlab chiqarish birlashmasi jismoniy tarbiya, sport va madaniy-ma'rifiy majmuasida g'oliblarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati ma'muriyati va kasaba uyushma Kengashi rayosatining 2025-yilning 28-oktabrida imzolangan qo'shma qaroriga asosan jamoa a'zolari – Markaziy KB "Beshapantov" koni Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchisi Lutfullo Ismatov, Shimoliy KB Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchilari Bekzod Bahridinov,

Sardor Aktamov, Aziz Shodmonov. "Qizilqum" KB Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchisi Rustam Aliqulov, Janubiy KB Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi nazoratchisi Xudoyor Elmurodovlarining har biri Faxriy yorliq, ikki kamerali muzlatgich hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.

Respublika musobaqasida shohsupaning eng yuqori o'rini egallagan

jamoani musobaqalarga tayyorlashda alohida namuna ko'rsatgan "NKMK" aksiyadorlik jamiyati Tartibot va qo'riqlash boshqarmasi bo'lim boshlig'i Maksim Bochkaryov, shu bo'lim mutaxassisi G'olib Tursunmurodov, "Navoiy mashinasozlik zavodi" IChB Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi komanda boshlig'i Alisher Sharipov, boshqarma Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish, madaniy-ma'rifiy majmuasi yo'riqchisi Radal Bakeyev, "Qizilqum" kon boshqarmasi Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi Nazorat o'tkazish punkti nazoratchisi Dilshod Vafoyevlardan iborat murabbiylarga Tashakkurnoma, qimmatbaho sovg'a va pul mukofotlari topshirildi.

G'oliblarga mukofotlarni Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushma Kengashi raisi I.Rahmatov va "NKMK" AJ mutasaddi rahbarlari topshirdilar.

"NKMK" AJ Matbuot markazi.

■ Oramizdagi odamlar

XIZMAT MAS'ULIYATI

– Inson bolaligidan kimgadir havas qilib ulg'ayadi. Yoshligimdan harbiy bo'lishni orzu qilganman. Televizorda harbiylar haqidagi ko'rsatuvlarni qiziqish bilan ko'rardim. Shunday onlarda, men ham Vatani himoyasida bo'lishim kerak, degan o'y har doim yuragimda yashardi, – deydi Markaziy kon boshqarmasining "Beshapantov" koni Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi boshlig'i o'rinbosari Dilshod Turdiyev.



Samarqand viloyatining Jomboy tumanida tug'ilib voyaga yetgan D.Turdiyev Shirin kasb –hunar kollejidagi ta'lim olgach, faoliyatini 2005-yildan Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadida oddiy nazoratchilikdan boshlagan. Bugungi kunda otryad boshlig'ining o'rinbosari, obyekt komandanti sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Qariyb oltin yil davomida nafaqat ishlab chiqarish obyektlari, balki butun korxona mulkini ishonchli muhofaza qilib kelayotgan mazkur otryad hozirgi vaqtda "Beshapantov" koni va Markaziy kon boshqarmasi Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadlariga ajratilgan. "Beshapantov" koni IHQOining xodimlari kunu tun navbatchilik asosida xizmat olib bormoqda. Uzoq yillardan buyon otryadga Maxammat Axmedov rahbarlik qilib kelmoqda.

Uning rahbarligida mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi hamda ish jaryonlarini samarali tashkil etish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilib, otryadning har bir komandasi shaxsiy tarkibida qat'iy intizom va mas'uliyat ustuvorligi ta'minlanayapti.

"Bizga yuklatilgan vazifa shunchaki qo'riqlash emas. Bu, ishlab chiqarish jaryoni xavfsizligi, obyektlarni muhofaza qilish, hamkasblarimiz uchun tinch va xotirjam mehnat sharoiti yaratishdek ulkan mas'uliyatdir. Ustozlarimning o'g'itlariga amal qilgan holda, faoliyatimda doimo mas'uliyat va sergaklik bosh shior bo'layapti. Biz qo'riqlaydigan obyektlar davlatimiz iqtisodiy qudratining asosiy tayyari. Shu boisdan kecha-yu kunduz, har qanday ob-havo sharoitida hushyor bo'lishimiz talab etiladi. Shunday mas'uliyatli sohada xizmat qilish, xodimlarning xavf-

sizligini ta'minlash otryadimizning har bir a'zosi uchun sharaftir, – deydi Dilshod Abdurahmonovich.

Qahramonimiz qator yillar otryadning kasaba uyushmasi raisi sifatida faoliyat ko'rsatib, xodimlar uchun sport musobaqalari, intellektual o'yinlar, madaniy tadbirlar uyushtirish, ularning dam olishlari va farzandlari uchun oromgohlarga yo'llanmalar ajratilishi-

da bosh-qosh bo'ldi. O'tgan yili Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligi munosabati bilan D.Turdiyev 3-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoniga munosib ko'rildi.

Dilshod Abdurahmonovich hayotda ham, ishda ham ko'pchilikka o'rnamdir. Turmush o'rtog'i Sarvinov Sulaymonova bir necha yildirki, 3-umumta'lim maktabida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berib, ilm-ma'rifat tarqatmoqda. Farzandlari Farhodjon, Samir va qizalog'i Iflora ota-ona mehri va ardog'ida kalmolga yetmoqdalar.

Ildoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi tizimida Dilshod Turdiyev singari salohiyatli, sofdil insonlar xizmat qilayotgani tufayli kon boshqarmasi bo'linmalari mulki, moddiy boyliklari va obyektlari xavfsizligi ta'minlanmoqda.

Aziza IRISOVA.

■ "Navoiyuran" davlat korxonasida

XALQARO MAYDONDA ISHONCH VA BARQAROR RIVOJLANISH SARI

O'zbekiston sanoatining yetakchi korxonalaridan biri — "Navoiyuran" davlat korxonasi o'z faoliyatida moliyaviy barqarorlik, shaffof boshqaruv va xalqaro hamkorlik tamoyillariga asoslangan yangi bosqichga qadam qo'yimoqda. So'nggi yillarda korxona tomonidan amalga oshirilgan transformatsion islohotlar va xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlik bu yo'nalishdagi muhim yutuqlarni tasdiqlab bermoqda.



Korxonaning moliyaviy barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligini tasdiqlovchi asosiy omillardan biri — bu yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan xalqaro kredit reytingidir. 2024-yil noyabr oyida S&P Global Ratings (AQSh) "Navoiyuran" davlat korxonasi BB- barqaror darajasidagi reytingni bergan bo'lsa, 2025-yil iyul oyida Fitch Ratings (AQSh) korxonaning reytingini BB barqaror darajasigacha oshirdi.

Kredit reytingini yangilash bo'yicha yillik jarayon doirasida joriy yilning 14-oktabr kuni S&P Global Ratings agentligi vakillari "Navoiyuran" korxonasiga tashrif buyurishdi. Mehmonlar ishlab chiqarish maydonlari, jumladan Uran ishlab chiqarish zavodi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Tashrif davomida korxona rahbariyati tomonidan o'tkazilgan taqdimotda 2025-yilning birinchi yarmi yakunlari bo'yicha moliyaviy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularning 2024-yil natijalari bilan taqqoslanma tahlili taqdim etildi. Ushbu ma'lumotlar ishlab chiqarish samaradorligi va moliyaviy natijalarning ijobiy dinamikasini yaqqol namoyon etdi.

Tashrifning asosiy maqsadi — korxonaning

2025-yil noyabr oyida kredit reytingini yangilash, shu orqali "Navoiyuran"ning xalqaro bozorlardagi ishonchli hamkor sifatidagi obro'sini yanada mustahkamlashdir.

BARQAROR TARAQQIYOT SARI QADAM

"Navoiyuran" davlat korxonasi inson huquqlari, mehnat standartlari, atrof-muhitni muhofaza qilish va korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi tamoyillarni chuqurroq integratsiya etish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global Shartnomasi (United Nations Global Compact – UNGC) tashabbusiga qo'shildi.

Bu qadam korxonaning mas'uliyatli boshqaruv, ochiqlik va barqaror rivojlanish yo'lidagi qat'iy intilishini aks ettiradi. Shu tariqa "Navoiyuran" dunyo miqyosidagi 24 mingdan ortiq korxona qatoriga qo'shilib, BMTning 10 ta tamoyiliga amal qilish majburiyatini zimmasiga oldi. UN Global Compact — bu biznesni ijtimoiy va ekologik jihatdan mas'uliyatli tamoyillar asosida boshqarishga yo'naltirilgan eng yirik xalqaro tarmoqdir.

"Navoiyuran" ushbu tashabbusga qo'shilish

orqali inson huquqlarini himoya qilish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi xalqaro standartlarni o'z faoliyatida amaliyotga tatbiq etishga sodiqligini yana bir bor tasdiqladi. Endilikda korxona har yili Communication on Progress (CoP) shaklidagi hisobotni taqdim etib, o'z faoliyatining xalqaro standartlarga muvofiqligini ochiq namoyish etadi. Kelgusida esa "Navoiyuran" BMTning Barqaror Taraqqiyot Maqsadlariga (SDG) hissa qo'shuvchi global dasturlarda faol ishtirok etishni rejalashtirmoqda.

INVESTORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

"Navoiyuran"ning xalqaro maydondagi ishonchli hamkorga aylanishi, shuningdek, mamlakat investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo'lida olib borayotgan faoliyati joriy yilning 23–24-oktabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "UzNIF Investor Day 2025" forumida ham yaqqol namoyon bo'ldi.

Forum O'zbekiston Respublikasi Milliy investitsiya jamg'armasi hamda Franklin Templeton kompaniyasi hamkorligida tashkil etilib, xalqaro investorlar bilan ochiq muloqot maydoni vazifasini o'tadi. Tadbirda "Navoiyuran" davlat korxonasi yevrobondlar emitenti sifatida, 2025-yilning yarim yillik moliyaviy natijalari, yil yakuni prognozlar va investitsiyaviy yo'nalishlari bo'yicha taqdimot o'tkazdi.

Forumda Sentinel Capital Management, ABFA Investments, Bluestone Investment Bank, Jefferies, Redwheel, Helikon, Trigon AM kabi dunyoga mashhur investitsiya kompaniyalari va moliya institutlari ishtirok etdi. Investorlar bilan muloqot chog'ida ishlab chiqarish hajmlari, narx siyosati, logistika yo'nalishlari, dividend siyosati va istiqboldagi rejalarga doir savollar muhokama qilindi.

Shu tarzda, "Navoiyuran" davlat korxonasi xalqaro reyting agentliklari, BMT Global Shartnomasi va xalqaro investorlar bilan samarali hamkorlik orqali moliyaviy barqarorlik, mas'uliyatli boshqaruv va ochiq muloqot madaniyatiga asoslangan yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'yimoqda. Bu esa nafaqat korxona, balki butun O'zbekiston sanoati uchun barqaror, shaffof va global miqyosda raqobatbardosh rivojlanishning yorqin namunasi hisoblanadi.

"Navoiyuran" DK PR xizmati.

■ Xabarlar

Navoiy mashinasozlik zavodida 15 ming turdan ortiq yuqori sifatli mahsulotlar, shu jumladan, metall va yog'ochga ishlov beruvchi dastgohlar, yirik kon texnikalari uchun detallar ishlab chiqarilmoqda. Kombinat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlar, uskuna va jihozlarning 97 foizi ushbu zavodda – "NMZ" yorlig'i ostida tayyorlanadi.

ZAVODNING ASOSIY SEXI



Zavodning quymachilik sexida uch yil avval foydalanishga topshirilgan 25 tonnalik zamonaviy po'lat eritish pechi, ikki dona "235" markali qoliplash mashinasi va yaqinda o'rnatilgan 50 tonna yuk ko'taruvchi ko'priki kran po'lat eritish quvvatini yiliga 15-20 foizgacha oshirish imkonini bermoqda.

– Yuqori aniqlikdagi sifatli quyma ehtiyot qismlar, shu jumladan zavodimizda ishlab chiqarilayotgan sharli tegirmonlarning katta o'lcham va og'irlikdagi quyma detallari seximiz jamoasi tomonidan tayyorlanadi. Sexda 2023-yilda 30 ming tonna mahsulot ishlab

chiqarilgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 33 ming tonnadan oshadi, – deydi sex boshlig'i Zafar Bobodo'v.

663 nafar ishchi-xodim ishlaydigan mazkur sexda metall eritishdan tortib, uni sifatli qoliplashgacha bo'lgan jarayon bajariladi. Keyingi yillarda korxonani texnik va texnologik jihatdan yangilash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmagan holda energiya resurslari sarfini 27 foizga kamaytirishga erishildi.

Azamat ZARIPOV

2-gidrometallurgiya zavodining sorbsiya sexi oltinni bo'tanadan ajratib olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, bu erda texnologik jarayonlar orqali ma'dandan qimmatbaho metal yuqori darajada ajratib olinadi. Sexda 17 ta texnologik zanjir to'liq ishlashi natijasida bir sutka davomida 153 ming tonnagacha bo'tana qayta ishlanib, maksimal darajada oltin ajratib olinmoqda.

KORXONA QUVVATI OSHADI

Zavodning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida sexda 3 ta yangi texnologik zanjir qurilish ishlari amalga oshirilyapti. Yangi zanjirlarning to'la quvvatda ishga tushirilishi soatiga qo'shimcha 480 tonna maydalangan ma'dan tarkibidagi oltinni sorbsion ajratib olish imkonini beradi.

– Ayni kunlarda bu ishlar jadallik bilan davom etmoqda. Qo'shimcha zanjirlar ishga tushirilgandan keyin sorbsiya jarayonining texnologik parametrlari optimallashtiriladi, reaksiya vaqti uzayadi, kislorod bilan ta'minlanish yaxshilanadi va sorbsion chiqindilarda oltin miqdori sezilarli darajada kamayadi. Bundan tashqari, sexning ishlab chiqarish barqarorligi oshadi, kompressor va aeratsiya tizimlari yuklamasi bir xil taqsimla-

nadi hamda umumiy energiya sarfi optimallashtiriladi. Qo'shimcha zanjirlarning ishga tushirilishi kelgusida ma'danni qayta ishlash hajmini yiliga 4,4 million tonnaga yoki zavodning yillik qayta ishlash quvvatini 60 million tonnaga yetkazish imkonini beradi – deydi MKB texnologik xizmati boshlig'i Baxtiyor Razakov.

Texnologik jarayonlar uchun zarur asbob-uskuna va ehtiyot qismlar mahalliyashtirilib, Navoiy mashinasozlik zavodi hamda Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodida tayyorlanayapti. Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan qurilish ishlari joriy yil yakuniga qadar tugallanishi rejalashtirilgan.

Nafosat ZIYOYOVA.

■ Mehnat jamoalarida

Keyingi yillarda “Muruntov” konining qazilma boyliklarini oʻzlashtirish yoʻlida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Konning ish surʼati hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirib, bir maromda ishlashi koʻp jihatdan Kon texnikalarini taʼmirlash sexi faoliyatiga bogʻliq. Sex jamoasining asosiy vazifasi kon texnikalariga sifatli xizmat koʻrsatish, zarur jihozlarni oʻz vaqtida, sifatli taʼmirlash va etkazib berishdir.

KASB MASʼULIYATINI HIS QILIB



Bu yerda yuqori texnologik talablar darajasidagi mashina detallari, katta oʻlchamli metall qurilmalar, texnologik jihozlar, kon texnikalarini taʼmirlash, montaj ishlari olib boriladi. Bugungi kunda 75 dan ortiq turdagi texnikalarning 7 ming turdagi ehtiyot qismlar tayyorlanishi barobarida eski ehtiyot qismlari ham taʼmirlanyapti. Investitsiya dasturining roʻyobga chiqarilishi natijasida bu raqamlar yildan-yilga oshib bormoqda. Sex jamoasi ishlab chiqarishni mahalliyalashtirishda yutuqlarga erishyapti. Maʼnaviy va texnik jihatdan eskirgan texnologik jihozlar zamonaviy va ish samaradorligi yuqori boʻlgan jihozlarga almashtirilmoqda. Ishlab chiqarishga raqamli dastur asosida ishlaydigan dastgohlar joriy etilayotganligi tufayli mahsulot sifati tobora yaxshilanmoqda.

Kon uskunalarini montaj qilish va taʼmirlash uchastkasi tokari Jamshid Oʻtkirov zimmasiga yuklangan vazifalarni toʻlaqonli bajarib kelmogʻda. Bolaligi va maktab davrlari Karmana tumanida oʻtgan Jamshid yoshligi-

dan konchilik sohasiga qiziqqanligini aytadi. Navoiy konchilik kollejni tugatib, yoʻllanma asosida Markaziy kon boshqarmasiga ishga kelgan yosh mutaxassis 20 yildan buyon konning maxsus texnikalari, avtoagʻdargichlar, burgʻilash uskunolari va texnologik jihozlarning ehtiyot qismlarini, tirkach, tortma, yetakchi gʻildiraklar, ekskavator choʻmichlari, butlovchi qismlar, roliklar, turli yarim muftalar kabi butlovchi qismlarni tayyorlab bermoqda.

Har bir sohada boʻlganidek, tokarlik kasbining ham oʻziga xos alohida masʼuliyati bor. Har bir detalni taʼmirlash jarayoni mahorat va sergaklikni talab qiladi. Shu boisdan jihozlarning maxsus texnikaga oʻrnatilishi qatʼiy tartib asosida olib boriladi. Aslida, bu sohada faoliyat olib borishning oʻzi qahramonlik. Jamshid Jaloliddinovich zimmasidagi vazifani sidqidillik bilan bajarib, kimgadir ustoz, kimgadir yaqin maslahatchi, boshqa birovga doʻst sifatida ahl jamoaning hurmat-eʼtiborini qozonmoqda.

Gulshan RUSTAMOVA.

■ Inson va qonun

OʻZARO HURMAT – BURCHIMIZ

Ish joylarida mehnat intizomi va xodimlar oʻrtasida hamjihatlik boʻlishiga erishish har bir korxonada sogʻlom muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Ammo ayrim hollarda xodimlar oʻrtasidagi tushunmovchiliklar yoki hissiyotga berilish, nooʻrin bahslar va tortishuvlar xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin. Afsuski, baʼzan mehnat jamoalarida shunday hollar uchrayotgani achinarli holdir.

Dastlabki tergov harakatlari davomida aniqlanishicha, A.Sh. Navoiy mashinasozlik zavodi polimer va rezinatexnik mahsulotlarni tayyorlash uchastkasida plastmassa quyuvchi vazifasida ishlab kelgan.

2025-yil 29-may kuni soat taxminan 20:30 larda ikkinchi smenaga ishga kelgan A.Sh. smena ustasi lavozimida ishlovchi fuqaro Sh.A. bilan dam olish kunlari ishchi roʻyxatini tuzish masalasida ogʻzaki tortishuvga kirishgan. Tortishuv chogʻida A.Sh. hissi-

yotga berilgan holda, topshiriq berish xonasi eshigi yonida Sh.A.ni kurash uslubida yiqitib, uning oyogʻiga tepib jismoniy taʼsir koʻrsatgan.

Oqibatda, RSTEIAM Navoiy filialining sud-tibbiy ekspertiza xulosasiga koʻra, jabrlanuvchi Sh.A.ning tanasiga tan-jarohatlar yetkazilgan.

Tergov jarayonida A.Sh. ga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 104-moddasi 1-qismi (sogʻliqqa qasddan ogʻir boʻlmagan tan jaro-

hati yetkazish) bilan jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan.

Ish joyidagi har qanday tortishuv yoki kelishmovchilikni zoʻravonlik yoʻli bilan hal etish nafaqat qonunga zid, balki insonlik qadriyatlariga ham toʻgʻri kelmaydi. Mehnat jamoalarida muomala madaniyati, sabr-toqat va oʻzaro hurmatni saqlash — har bir xodimning burchi hisoblanadi. Hissiyotni jilovlamaslik, oqibatini oʻylamasdan qilingan xatti-harakat shaxsning erkinligi, obroʻsi va hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Shu boisdan fuqarolar turli nizolarni huquqiy asosda, tinch va oqilona yoʻl bilan hal qilishlari maqsadga muvofiq boʻladi. Shunda ortiqcha koʻngilsizliklarning oldi olinadi.

B.AXMEDOV,
Navoiy ixtisoslashtirilgan
prokurori oʻrinbosari,
adliya maslahatchisi.

■ Bugunning gapi

RAQAMLASHTIRISH – SHAFFOFLIK SARI QADAM

Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari korxonalar va davlat muassasalarining ish faoliyatini tubdan oʻzgartirmoqda. “NKMK jamgʻarmasi” davlat muassasasi ham oʻzining yotoqxonalari va ovqatlanish kombinatini raqamlashtirish boʻyicha muvaffaqiyatli ishlarni amalga oshirmoqda. Ushbu tashabbus xodimlarga qulaylik yaratish, jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Eng muhim yutuqlarimizdan biri – bu yotoqxonalarda yashovchilarni roʻyxatga olish va hisobini yuritish jarayonini avtomatlashtirish boʻldi. Endilikda xodimlarni joylashtirish, roʻyxatdan oʻtkazish va chiqishni boshqarish tizimi soddalashtirildi. Bu, oʻz navbatida, maʼmuriy xodimlar ish yukini kamaytirish bilan birga xizmat sifatini oshirishga imkon berdi.

Raqamlashtirish dasturi doirasida ovqatlanish jarayoni va oziq-ovqat mahsulotlarini hisobga olish tizimi joriy etildi. Natijada xodimlarning davomati va ovqatlanishi elektron nazorat orqali kuzatildi. ID-kartalar yoki yoʻllanmalar yordamida oziq-ovqat tarqatilishi ustidan nazoratni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Bu esa xoʻrandalarining ovqatlanishini yanada qulay va tartibli qiladi, hisob yuritilishi shaffoqlashadi.

Jarayonlarni avtomatlashtirish natijasida oddiy, takroriy operatsiyalar soddalashtirildi, bu esa maʼmuriy xodimlar ish samaradorligini oshirmoqda. Buxgalteriya hisobi va hisobotlarining aniqligi sezilarli darajada yaxshilandi, xatoliklar kamaydi.

Raqamli platforma rahbariyatga yotoqxonalarning bandligi va xodimlarning ovqatlanish holati boʻyicha jonli tahliliy maʼlumotlar koʻrish imkonini beryapti. Takomillashtirilgan hisobot va xarajatlarni nazorat qilish tizimi boshqaruvdagi shaffoqlikni oshirdi va resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish dasturining joriy etilishi xodimlarning mehnatini sezilarli darajada yengillashtirdi, qoʻlda bajariladigan operatsiyalar sonini qisqartirdi. Shu bilan birga, boshqaruv samaradorligi ortdi, nazorat kuchaytirildi va qarorlar qabul qilish jarayoni tezlashdi.

Soʻnggi davrda amalga oshirilgan raqamlashtirish tashabbusi nafaqat muassasa ichki jarayonlarini soddalashtirish, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali xodimlar va xizmat oluvchilar uchun qulay muhit yaratish boʻyicha muhim qadam boʻldi. Raqamli platformaning muvaffaqiyatli ishlashi kelajakda boshqa sohalarda ham raqamlashtirishni kengaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Husniddin QOʻZIYEV,
“NKMK jamgʻarmasi” DM Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari boʻlimi boshligʻi.

■ Xabarlar

Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti olimlari hamda mutaxassislari tomonidan Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida olib borilgan ilmiy izlanishlar samarasini bermoqda.

MARKAZIY ILMIY-TADQIQOT LABORATORIYASIDA



2021-yilda tashkil etilgan “Suv taʼminoti muammolarini yechish” laboratoriyasi keyingi yillarda 20 dan ortiq kimyoviy elementlarni aniqlashga moʻljallangan atom-absorbsion analizatori, eritmaning loyqalik darajasini aniqlash uchun mutnomer asbobi, shuningdek spektrofotometr, elektron tarozi, kuydirish pechi, distillator kabi uskunalar bilan taʼminlandi.

Yaqinda laboratoriyada Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Kimyo-metallurgiya fakultetining “Kimyoviy texnologiya” kafedrası filiali oʻz faoliyatini boshladi.

Filialda 6 nafar professor-oʻqituvchi rahbarligida 100 nafardan zi-

yod talaba laboratoriya sharoitida suv tanqisligi muammolari boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazishadi. Shuningdek, kombinat gidrometallurgiya zavodlarining chiqindi saqlash xoʻjaligida texnik suvni tozalash va ularning ekologik qayta ishlash imkoniyatlarini tahlil etib borishadi, – deydi “Suv taʼminoti muammolarini yechish” laboratoriyasi boshligʻi Shavkat Salimov.

Kafedra filialining faoliyati nafaqat talabalarning amaliy koʻnikmalarini mustahkamlash, balki ularni ishlab chiqarish muhitiga yaqinlashtirish, ilmiy izlanishlarga jalb etishga xizmat qiladi.

Azamat ZARIPOV.

“Doʻstlik” agrofirmasi jamoasi 2025-yilda samaradorlikni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish borasida salmoqli natijalarga erishdi.

SAMARADORLIK VA TEJAMKORLIK YOʻLIDA

Korxonada parranda goʻshti ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda joʻja xaridida mablagʻ sarfini maqbullashtirish maqsadida yangi inkubatoriya punkti ishga tushirildi. Joriy yilning avgust oyida foydalanishga topshirilgan mazkur zamonaviy inshootda dastlabki bosqichda 7 ming 200 dona broyler joʻja ochildi.

Ayni paytda inkubatoriya punkti toʻliq quvvat bilan ishlayapti. Uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida 15 ming dona broyler tuxumlarini inkubatsiya qilish yoʻlga qoʻyildi. Hisob-kitoblarga koʻra, bir navbatda 10 ming bosh broyler joʻjalari ochirilib, ilgari joʻja sotib olishga sarflangan mablagʻ iqtisod qilinishi taʼ-

minlandi. Shuningdek, agrofirmada issiqlik energiyasi va ichimlik suvi resurslaridan oqilona foydalanish, maishiy oqova suvlarini tozalash hamda irrigatsiya tizimida qayta ishlash imkonini beruvchi biohovuz punkti ishga tushirildi. Ushbu ekologik toza tizim orqali suvdan qayta foydalanish evaziga joriy yilning toʻqqiz oy yakuni boʻyicha 117 million soʻm mablagʻ iqtisod qilinishiga erishildi.

Bu kabi samarali tashabbuslar “Doʻstlik” agrofirmasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlab, zamonaviy agrotehnologiyalarni joriy etishda yetakchi korxonalardan biriga aylanishiga zamin yaratmoqda.

S.QURBONOV

■ Актуально

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И НОВЫЕ РИСКИ
Современные цифровые технологии всё глубже проникают в повседневную жизнь, делая работу и общение удобнее и динамичнее. Однако вместе с ростом цифровизации возрастает и количество угроз в киберпространстве.

По данным Центра кибербезопасности Оперативно-розыскного департамента МВД Республики Узбекистан, за последние пять лет количество киберпреступлений в стране увеличилось многократно. Только за 2024 год по сравнению с 2023-м их число выросло в 9,1 раза, а количество обращений граждан и организаций по фактам кибермошенничества — в 34 раза. Доля таких преступлений в общей структуре преступности достигла 44,4%.

Подавляющее число всех киберпреступлений связано с мошенничеством с банковскими картами и электронными платёжными системами. Наиболее распространённые схемы:

- 60% — получение контроля над банковской картой или мобильным устройством через вредоносные ссылки

и программы;

- 16% — выманивание SMS-кодов для доступа к банковским аккаунтам;
- 11% — мошенничество на онлайн-площадках для торговли;
- 9% — сбор денежных средств под различными предлогами;
- 4% — оформление онлайн-кредитов на имя пострадавших.

Эти цифры подтверждают: цифровая грамотность и осведомлённость о киберугрозах становятся важной частью жизни современного человека.

ПОЧЕМУ ВАЖНО БЫТЬ ОСТОРОЖНЫМ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ

Социальные сети сегодня — не только средство общения, но и мощный инструмент влияния. Однако публикации

личных данных, фотографий, информации о финансовых операциях, местоположении нередко открывают доступ злоумышленникам к конфиденциальным сведениям.

Наиболее частые виды кибермошенничества:

- фишинговые ссылки — поддельные сайты, маскирующиеся под официальные ресурсы;
- звонки от «сотрудников банка», в ходе которых выманиваются коды подтверждения;
- SMS-мошенничество (smishing) — сообщения с ложными уведомлениями о переводах или компенсациях;
- подмена страниц оплаты — фальшивые платёжные формы, собирающие данные карт, то есть при оплате в интернете пользователь попадает на под-

дельную страницу, где вводит данные карты, либо мошенник через соцсеть или телефон добывается информации, манипулируя доверием.

Особенно уязвимыми остаются пожилые пользователи и подростки, однако риски касаются каждого. Даже один небдуманный пост может привести к утечке данных или финансовым потерям.

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И САМОКОНТРОЛЬ

Социальные сети сегодня — это не только средство общения, но и зеркало нашего общества. Здесь формируются мнения, создаются тренды и распространяется информация. Поэтому важно развивать культуру поведения в интернете, которая основывается на уважении, ответственности и самокон-

троле.

Каждому пользователю стоит помнить:

- уважайте чужое мнение и избегайте агрессии;
- проверяйте достоверность информации перед её публикацией;
- осознавайте, что каждое слово и фото в сети оставляют цифровой след. Чтобы обезопасить себя и близких, необходимо соблюдать простые, но эффективные правила:
- не переходить по подозрительным ссылкам и проверять адрес сайтов;
- не сообщать пароли, PIN-коды и CVV даже «сотрудникам банка»;
- использовать надёжные пароли и двухфакторную аутентификацию;
- ограничивать доступ к личной информации через настройки конфиден-

циальности.

ОСОЗНАННОСТЬ — КЛЮЧ К БЕЗОПАСНОСТИ

Информационная безопасность — это не просто технический вопрос, а культура мышления. Каждый из нас ежедневно взаимодействует с цифровыми инструментами, и от уровня нашей осведомлённости зависит, насколько защищёнными будут личные и корпоративные данные.

В эпоху, когда виртуальное пространство становится продолжением реальности, забота о кибербезопасности должна быть приоритетом как для организаций, так и для каждого сотрудника.

Саёра САИДРАХМАНОВА,
старший эксперт-криминалист,
подполковник.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta roʻyxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy koʻchasi,
27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamgʻarmasi” DM boʻlinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati boʻyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Navbatchi: Nasiba SHAMURATOVA
Texnik muharrir: Zafarjon OLIMOV

Qogʻoz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 526. 2025-yil 12-noyabr 17:00 da chop etishga topshirildi.